



Приложение № 8 к правилам казначейского исполнения  
бюджетов бюджетной системы Республики Узбекистан

**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***  
к договору (контракту) от 05.11.2022 г. № 239-2-41-ОВ/2022

между Zamondosh Arx Loyiha и Шофиркон туман Ободонлаштириш бошкармаси на общую сумму 15 500 000

Глава

110

Казначейский лицевой счёт

40172286006257065200110005

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)		Всего
	4339000		
Январь			
Февраль			
Март			
Апрель			
Май			
Июнь			
Июль			
Август			
Сентябрь			
Октябрь			
Ноябрь	15 500 000,00		15 500 000,00
Декабрь			
Всего за год	15 500 000,00		15 500 000,00

Всего 15 500 000 сум

Ўн беш миллион беш юз минг сўм 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 4 650 000 сум или 30,00%\*\*\* от общей суммы договора подлежат предоплате в Ноябрь мес. 2022 г.

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_\_ % , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_\_ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



Главный бухгалтер заказчика

Принял работник казначейского подразделения

(подпись)

Якубов Ҳалим Махмудович

Ф.И.О.

(подпись)

Аъзамов Исок Камолович

Ф.И.О.

(подпись)

Получил работник  
заказчика

« \_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_ г.

« \_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_ г.

# HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI

05.11.2022 yil.

239-2-41-OB/2022-son

**“Zamondosh Arx Loyiha” MCHJ** (keyingi o‘rinlarda “Ijrochi” deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbari **Y.Yusupov** bir tomondan, va **Shofirkon tuman Obodonlantirish boshqarmasi** (kiyingi o‘rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi rahbari **H.Yakubov**, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq "Ijrochi", "Buyurtmachi" ning rasmiy murojaatiga asosan, **Shofirkon tuman Iskogare qishlog'ida 200 metr chuqurlikda tik quduq qazish(aholi tomorqasini sug'orish uchun 200 metr chuqurlikda tik quduq qazish, 350 metr masofadan elektr liniya tortib kelish, transformator o'rnatish ishlari)**ini loyiha smeta hujjalarni ishlab chiqish borasidagi xizmatlar ko'rsatishni, buyurtmachi esa bu xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

## II. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Qonunchilikda belgilangan tartibda mazkur turdag'i shartnomalarni tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjalarni so'rash va olish;

2.2. Mazkur turdag'i shartnomalarni tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini so'rash va olish, mutaxassislar bilan maslahatlashish;

2.3. davlat organlari va boshqa organlarga, mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bilan murojaat etish hamda shikoyatlar berish va ulardan asoslantirilgan yozma javoblar olish;

2.4. boshqa tarafning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlari xususidagi ma'lumotlarni to'plash;

2.5. xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari va usullarini qo'llash.

2.6. Shartnoma taraflari qonunchilikda va shartnomada nazarda tutilgan o'zga huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

2.7. Shartnoma taraflari xo'jalik shartnomalari to'g'risidagi qonunchilikning talablariga riyoa etishlari;

2.8. Mazkur turdag'i shartnomalarning o'z vaqtida tuzilishini ta'minlash;

2.9. tuzilgan shartnomalar bo'yicha zimmalariga olingan majburiyatlarni o'z vaqtida va tegishli tartibda bajarishlari shart.

2.10. Shartnoma taraflari qonunchilikda va shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladi.

## 3. XIZMAT HAQI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun "Buyurtmachi" shartnomaviy baho to'g'risidagi bayonnomaga muvofiq **15 500 000 (O'n besh million besh yuz ming)** so'm, shu jumladan oldindan to'lov tartibida mazkur summaning **30 foizini**, ya'ni **4 650 000 (To'rt million olti yuz ellik ming)** so'm miqdorida to'laydi. Qolgan **70 foizi** ya'ni **10 850 000 (O'n million sakkiz yuz ellik ming)** so'mini esa xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjalarni qilgandan so'ng 30 bank ish kuni ichida amalga oshiriladi.

3.2. To‘lov pul ko‘chirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Ijrochining o‘zi aybdor bo‘limgani holda xizmatni ko‘rsata olmagan taqdirda, Buyurtmachi Ijrochiga uning xarajatlarini to‘lashi shart, bunda Ijrochining xizmatlar ko‘rsatishdan ozod qilinishi munosabati bilan olgan yoki olishi mumkin bo‘lgan foydasi chegirib qolinadi.

3.4. Buyurtmachining aybi bilan xizmat ko‘rsatish mumkin bo‘lmay qolgan taqdirda, xizmatlar bahosi butunlay to‘lanishi kerak.

#### **4. XIZMATLARNI TOPSHIRISH-QABUL QILISH TARTIBI**

4.1. Ijrochi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan xizmatlarni shaxsan o‘zi ko‘rsatishi shart.

4.2. Xizmatlar ko‘rsatilgandan so‘ng Ijrochi Buyurtmachiga ko‘rsatilgan xizmatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini taqdim etadi va unga hisobot hujjatlarini ilova qiladi.

4.3. Xizmat natijalaridan qoniqmagan Buyurtmachi dalolatnomani olgan paytdan boshlab 10 kun ichida Ijrochiga xizmatlarni qabul qilishdan bosh tortishi mumkin.

4.4. Buyurtmachining radnomasi asosli deb topilgan taqdirda, taraflar ikki tomonlama dalolatnomaga tuzadilar va unda qo‘srimcha ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan xizmatlar ro‘yxati va ularni bajarish yoki bajarishni to‘xtatish muddatlarini ko‘rsatadilar.

4.5. Xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida ularni davom ettirish imkoniyati yo‘qligi yoki maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, Buyurtmachi bu haqda Ijrochini xabardor qilishi va u bilan birga zaruriy choralarни ko‘rishi shart.

4.6. “Xizmatlar”ni ko‘rsatish muddati 2022-yil 30-noyabrgacha amalga oshiriladi.

#### **5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI, NIZOLARNI HAL QILISH**

5.1. Taraflar majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida kelib chiqadigan nizolar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi «Xo‘jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi» to‘g‘risidagi Qonuni va ushbu shartnomaga asosan hal qilinadi.

5.2. Xizmalar ko‘rsatish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to‘liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko‘rsatilmagan hollarda, ijrochi buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlar yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to‘lash shartnomaga majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to‘liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko‘rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.3. Yetkazib berilgan ishlar, xizmatlar haqini o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun buyurtmachi ijrochiga o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘limgan miqdorida penya to‘laydi.

5.4. Agar bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo‘yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo‘jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi ishlar va xizmatlarni qabul qilish hamda ularning haqini to‘lashni rad etib, ijrochidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo‘limgan ishlar va xizmatlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar ishlar va xizmatlar haqi to‘lab qo‘yilgan bo‘lsa, to‘langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo‘limgan ishlar, xizmatlar yetkazib bergenlik uchun jarima ijrochidqn akseptsiz tartibda undirib olinadi. Jarimani undirish to‘g‘risidagi to‘lov talabnomasi bank muassasasiga ishlar va xizmatlarning sifati, assortimenti va navi lozim darajada emasligi to‘g‘risidagi dalolatnomaga tuzilgandan keyin o‘n kun ichida taqdim etiladi.

Jarimani undirish to‘g‘risidagi to‘lov talabnomasi belgilangan o‘n kunlik muddatni buzgan holda taqdim etilgan hollarda, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5.5. Taraflar o‘rtasida kelib chiqadigan nizolar o‘zaro kelishuv asosida, agar taraflar kelisha olmasalar nizolar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosan iqtisodiy sud tartibida hal qilinadi.

## **6. KORRUPSIYAGA QARSHI QO‘SHIMCHA SHARTLAR.**

6.1. Taraflar shartnomaga bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va‘da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to‘lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya‘ni taraflardan biri o‘z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsning manfaatlarini ko‘zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rilishiga kafolat beradi.

6.2. Agar shartnomaga bo‘yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan va ushbu shartnomaga yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo‘lgan faktlarga duch kelsa, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart.

6.3. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlarga rioya etilmaganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabr sanasidagi PF-6313-son farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to‘xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo‘ladi.

## **7. FORS-MAJOR HOLATLARI**

7.1 Tomonlarga bog‘liq bo‘lmagan, oldindan oldini olish mumkin bo‘lmagan holatlar shu jumladan e’lon qilingan fuqarolik urushi, epidimiylar, blokadalar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yong‘inlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan holatda majburiyatlarni bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

7.2. Taraflar o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan holatlarda majburiyatlarni bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtidan 3 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.

## **8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, O‘ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI**

8.1. O‘zbekiston Respublikasi “Budget kodeksi”ning 122-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budget tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budgeti mablag‘lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G‘aznachilik bo‘limidan ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng kuchga kiradi hamda **2022 yil 31 dekabrgacha amalda bo‘ladi**.

8.2. Ushbu shartnomaga har qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

8.3. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O‘zbekiston Respublikasini amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra, yetkazilgan zarar qoplangan holda yo‘l qo‘yiladi.

8.4. Buyurtmachi xizmatlarning belgilangan bahosini to‘liq to‘lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma Ijrochining aybli harakatlari tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno.

8.5. Ijrochi ushbu shartnoma bekor qilinishi tufayli buyurtmachiga yetkazilgan zararning hammasini to‘lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma Buyurtmachining aybi bilan bekor qilingan hollar bundan mustasno.

8.6. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan taraf ikkinchi tarafga 10 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.


8.7. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

## 9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI:

### “Zamondosh Arx Loyiha” MCHJ

(Tovar yetkazib beruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchining nomi)

Manzil: Shofirkon tumani Shibirg'on qishlog'i 82-uy  
Tel./faks +998 99 4211112  
h/v 20208000600837402001  
Bank nomi Agro Bank Shofirkon  
MFO 00093  
OKONX 61900  
STIR 305271768



Rahbar \_\_\_\_\_ Y.Yusupov

Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi

(budjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotning nomi)

Manzil: Shofirkon tuman Mirzoqul MFY  
Tel./faks 50-2-33-39  
sh/h\*401722860062587065200110005  
budjetdan mablag‘ oluvchi  
STIR 201114223 OKONX 90211  
G‘aznachilik bo‘linmasi nomi: Shofirkon tuman bo‘yicha  
G‘aznachilik bo‘linmasi  
STIR 201188400  
G‘aznah/v:23402000300100001010  
Bankning nomi: Toshkent sh. Markaziy bank MFO: 00014 G‘aznachilik bo‘linmasi  
STIRi:201122919

Rahbar \_\_\_\_\_ H.Yakubov

	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	XALIM YAKUBOV MAXMUDOVICH
	Imzolangan sana	05.11.2022 11:29
	Hujjat kodi	DF5518586212
	Hulosa kodi	RS2487561700

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**

RS2487561700

**1. Loyihaning turi : Shartnoma**

**2.Loyihaning nomi:** Shofirkon tuman obodonlashtirish boshqarmasi hamda “Zamondosh Arx Loyiha” MCHJ o‘rtasida tuzilgan loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish borasidagi haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi tuzish haqida.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:** Shofirkon tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 04.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Shofirkon tumani  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**B.V.SAIDOV**

05.11.2022